

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KO'NIKMALARINI
IMPROVIZATSION MUHITDA RIVOJLANTIRISH**

Miraxmedova Dilafruz Nurilloxon qizi

ADPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilgan talablar, zarur bo'lgan kompetentsiyalar, o'qituvchining tezkor qaror qabul qilish va pedagogik tajriba, mahorati orqali holatni chuqur o'ylangan va maqsadni sifatli amalga oshirishni kafolatlovchi tomonga bura olishi, o'qituvchining pedagogik improvizatsiya qilish qobiliyati o'z oldiga qo'yilgan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda pedagogik oldindan ko'ra bilish, intuitiv faoliyatning yaxshi rivojlanganligini namoyon etuvchi jarayonlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: improvizatsiya, pedagogik jarayon, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, kompetensiya, talab, ta'lim-tarbiya, faoliyat, mutaxasis.

Pedagogik faoliyatda improvizatsiya kasbiy-ijodiy kompetensiya sifatida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi, zero har bir pedagog inson shaxsiyati bilan bevosita ish olib boradi, uning rivojlanishi va barkamolligi uchun shart-sharoit yaratadi. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida murabbiydan turli ko'nikmalar talab qilinayotgan bir sharoitda, pedagogik jarayonda improvizatsiya qilish malakasi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Improvizatsiya tushunchasi, avvalo, pedagogik mashg'ulotlar doirasida novatorlik ruhini saqlab qolgan holda, amalda joriy etilishi kerak bo'lgan jarayonni ko'zda tutadi.


Improvizatsiyalash ko'nikmasi faqatgina pedagogik mahorat yoki uslubiy o'zgaruvchanlik bilan chegaralanmaydi. Uni shakllantirish uchun pedagog avvalo o'zini bir ijodkor sifatida ko'ra olishi, individual kreativ tafakkurni rivojlantirishi zarur. Improvizatsiya jarayonida nafaqat ta'lim mazmuni, balki pedagogik etika, didaktik yondashuvlar, psixologiya, talabalar bilan o'zaro munosabatlar xususiyatlari ham katta rol o'ynaydi. Jamiyat taraqqiyoti surat bilan tobora jadallashayotgan bir paytda, talaba ongida ideallar, taraqqiyot texnologiyalari, innovatsion ilmiy yutuqlar haqida ma'lum tushunchalar shakllanishi lozim. Improvizatsiya orqali esa ushbu jarayon jonlilik kasb etib, o'quvchi yoki talabaning rivojlanishi uchun konstruktiv muhit yaratiladi.

Tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan "improvizatsiya", "kasbiy ko'nikma", "improvizatsion muhit", "pedagogik qobiliyat" tushunchalari mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini improvizatsion muhitda rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Improvizatsiya jarayon sifatida quyidagi o'ziga xosliklarga ega: yaxlit, kooperativ faoliyat, informatsion aloqa, o'zaro ta'sir ko'rsatish, o'zaro munosabat, o'zaro bir-birini tushunish. Improvizatsiya hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri qarorlarni qabul qilish bo'lib, bunday vaziyatlarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini improvizatsion muhitda rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish va pedagogik o'rganish natijasida, dissertant tomonidan pedagogik faoliyatdagi improvizatsiyaga quyidagicha ta'rif berildi: pedagogik improvizatsiya — bu o'qituvchining o'quv jarayonida kutilmagan holatlar yuz berganda, o'zining bilim va tajribasidan foydalanib, muammoga mos yechim topish qobiliyatidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida namoyon bo'luvchi pedagogik improvizatsiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ajratib ko'rsatilishi mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. Pedagogik improvizatsiyaning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar

Improvizatsiya ustuvorligida yana bir muhim jihat – bu pedagog oliy ta'lim davridayoq asosiy nazariy ko'nikmalarni egallashi bilan birga, amaliy jarayonlarda tezkor munosabat bildirish ko'nikmasini rivojlantirishi kerakligidir. Pedagogika nazariyasi o'zida ma'lum bir qat'iy qoidalarni aniq shaklda belgilab berishi mumkin, biroq real dars jarayonida barcha narsa reja asosida ketavermaydi. Masalan, bir o'quvchi nogahon kutilmagan savol beradi yoki guruhda bahs-munozaralar avj oladi, auditoriya his-hayajoni o'zgaradi – shunday holatlarda pedagogik improvizatsiya barcha nazariy bilimlarni birlashtirgan holda ishga tushadi. Bu paytda pedagogdan noan'anaviy yondashuv talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini improvizatsion muhitda rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: 1. Moslashuvchan ta'lim muhiti: improvizatsiyaning qo'llab-quvvatlovchi muhiti. 2. Innovatsion texnologiyalar va metodlar: Multimedia va simulyatsiyalarni qo'llash. 3. Mentorlik tizimi: Tajribali o'qituvchilar bilan o'zaro muloqot. 4. Kreativlikni rivojlantirish: Eksperiment qilishni rag'batlantirish. 5. Reflektivlik: O'qituvchilik amaliyotini tahlil qilish imkoniyatlari. 6. Jamoaviy ish: Hamkorlikni rag'batlantirish. 7. Amaliyot va simulatsiyalar. 8. Samarali o'z-o'zini rivojlantirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini improvizatsion muhitda rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: 1) Vaziyatni tahlil qilish va baholash; 2) Maqsadni va vazifalarni belgilash; 3) Yechim variantlarini shakllantirish; 4) Amalga oshirish; 5) Natijalarni baholash va tahlil qilish.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili improvizatsion muhitda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik va psixologik jihatlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu jarayonda darslar amaliyotga

yo'naltirilgan holda, interaktiv metodlar, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar yordamida o'qituvchilarga real sinf sharoitiga yaqin vaziyatlarda o'zlarini sinash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, reflektiv faoliyat orqali o'z xatoliklarini tahlil qilish va ularni tuzatish imkoniyati beriladi, bu esa o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Improvizatsion muhit shaxsiy ehtiyojlarga mos yondashuvni ta'minlab, individual va guruhli ish faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi, bu esa bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro hamkorlik, empatiya va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Psixologik jihatdan esa, bunday muhit o'zini erkin ifoda etish, ichki motivatsiyani kuchaytirish va kutilmagan vaziyatlarda stressni boshqarish qobiliyatini shakllantiradi. Shu tarzda, improvizatsion o'quv jarayoni bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlar, balki real sharoitlarda tez va samarali yechim topish, ijodiy fikrlash va psixologik mustahkamlik kabi zarur ko'nikmalar bilan ta'minlab, ularni kelajakdagi ta'lim jarayoniga samarali tayyorlaydi.

O'tkazilgan tahlillar tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini improvizatsion muhitda rivojlantirishning ichki va tashqi omillarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Tashqi omillar: pedagogik muhit, mentorlik va qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va jamoaviy ish, metodik resurslar. Ichki omillar: shaxsiy motivatsiya va qiziqish, kreativlik va ijodkorlik, o'zini-o'zi anglash va refleksivlik, o'zini-o'zi boshqarish.

Metodik va pedagogik asoslar nuqtai nazaridan ko'rib chiqqanda, bo'lajak o'qituvchini improvizatsion muhitga tayyorlash bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda nazariy tushuncha berildi: improvizatsiya nimadan iborat, uning psixologiyaliq-pedagogik mohiyati nima, qanday didaktik vazifalar bajarilishi kerak, qanday maqsadlar ko'zlangan. Ikkinchi bosqichda esa amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarda amaliy ko'nikma shakllantirish yotibdi: bu rol o'yinlar, dars modellash, keyslarni tahlil qilish, baxs-munozaralar, jamoaviy muhokamalar, simulyatsiya orqali faoliyat. Uchinchi bosqichda, ya'ni natijalarni baholash bosqichida talabalarda improvizatsiya samaradorligini aniqlash maqsadida maxsus baholash o'lchovlari, esse yoki video-yozuv orqali tahlil, refleksiya suhbatlari o'tkazilishi, tajriba-eksperiment ishlari amalga oshirilishi mumkin. Bunda, albatta, talabalar qalbidagi kreativlik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, interaktiv muomalachilik, liderlik sifati, guruhda sog'lom muhit yaratish malakasi kabi ko'rsatkichlar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berikhanova L. Yu. Podgotovka studentov — budущix uchiteley k improvizatsionnoy deyatel'nosti. — Tyumen', 1988.- 125 s.
2. Verbitskiy A.A. Aktivnoe obuchenie v vysshey shkole: kontekstnyy podxod. -M.: Vyssh. shk. 1991. - 204 s.
3. Slastenina V.A. i dr. Pedagogika: Ucheb. posobie dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zavedeniy / V. A. Slastenina, I. F. Isaev, Ye. N. Shiyonov; Pod red. V.A. Slastenina. - M.: Izdatel'skiy sentr "Akademiya", 2002. - 576 s.
4. Xar'kin V. N. Pedagogicheskaya improvizatsiya: teoriya i metodika / V. N. Xar'kin. - M.,1992. - 157s